

## **ENDOMETRIOZ KASALLIGI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA ZAMONAVIY TASHXISLASH VA DAVOLASH SAMARADORLIGI**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot Fakulteti*

*Davolash ishi 4-bosqich talabasi -Xalqaro*

*Turon Fanlar akademiyasi a’zosi*

**Halima Xudayberdiyeva**

*Al-Farg’oniy ko’krak nishoni sohibasi*

**Yuldasheva Barnoxonim Maribjanovnaning**

*yozgan ilmiy maqolasi*

*[barnoyuldasheva372@gmail.com](mailto:barnoyuldasheva372@gmail.com)*

*Tel: +998994728841*

*Ilmiy Rahbar: Rixsiyeva Nazira Tohirovs*

*- Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti*

*kilink fanlar kafedrasi dotsent*

*[nazirarikhsiyeva@gmail.com](mailto:nazirarikhsiyeva@gmail.com)*

*Tel;+998998753909*

**Annotatsiya:** Ushbu tizesda Endometrioz kasalligining zamonaviy tashxislash va davolash usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ultratovush tekshiruvi (UTT), magnitrezonans tomografiya (MRT), laparoskopiya va biomarkerlar yordamida tashxislash samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, gormonal terapiya, jarrohlik usullari va qo‘srimcha davolash metodlarining natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni

ko‘rsatdiki, erta tashxis va kompleks yondashuv bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada, yaxshilaydi.{1}

**Kalit so‘zlar:** Endometrioz, tashxislash, davolash, laparoskopiya, gormonal terapiya.

**Abstract:** This article analyzes modern methods of diagnosing and treating endometriosis. The study examines the effectiveness of diagnostic techniques such as ultrasound (US), magnetic resonance imaging (MRI), laparoscopy, and biomarkers. In addition, the results of hormonal therapy, surgical approaches, and complementary treatment methods are reviewed. The findings indicate that early diagnosis and a comprehensive approach significantly improve patients' quali{1}

**Keywords:** Endometriosis, diagnosis, treatment, laparoscopy, hormonal therapy.

**Аннотация:** В данной статье анализируются современные методы диагностики и лечения эндометриоза. В исследовании рассматривается эффективность таких диагностических методов, как ультразвуковое исследование (УЗИ), магнитно-резонансная томография (МРТ), лапароскопия и биомаркеры. Также проведен анализ результатов гормональной терапии, хирургических методов и дополнительных способов лечения. Результаты исследования показывают, что ранняя диагностика и комплексный подход значительно улучшают качество жизни пациентов.{1}

**Ключевые слова:** Эндометриоз, диагностика, лечение, лапароскопия, гормональная терапия.

**Kirish:** Endometrioz - bachadon ichki qavati (endometriy) o‘sishining normal joylashuv hududidan tashqarida rivojlanishi bilan tavsiflanadigan ginekologik kasallikdir. Ushbu kasallik ko‘pincha surunkali xarakterga ega bo‘lib, reproduktiv yoshdagي ayollar orasida keng tarqalgan kasallik xissoylanadi. Endometrioz tashxisini erta qo‘yish va samarali davolash usullarini ishlab chiqish hozirgi tibbiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir {2}. Endometrioz rivojlanishining aniq sababi hali to‘liq

aniqlanmagan bo‘lsa-da, asosiy nazariyalardan biri retrograd hayz qon ketishi hisoblanadi. Immunitet va gormonal omillar ham kasallik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Endometrioz bilan og‘rigan bemorlarda yallig‘lanish jarayonlarining kuchayishi, estrogen gormonining oshishi va immun javobning buzilishi bilan kuzatiladi (5). Zamonaviy diagnostika usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Endometriozning eng keng tarqalgan belgilari qorin pastki qismidagi surunkali og‘riq, dismenoreya, dispareuniya va bepushtlikka olib kelishi bilan havfli omil hisoblanadi.

**Ultratovush tekshiruvi (UTT):** Endometriotik shishlar va tuxumdon kistalarini aniqlashda asosiy vizualizatsiya usuli hisoblanadi {3}

**Magnit-rezonans tomografiya (MRT):** Qiyin tashxis qo‘yish holatlarida yuqori aniqlikka ega bo‘lgan usul sanaladi. {6}

**Laparoskopiya:** Hozirgi kunda "oltin standart" hisoblanadi. Ushbu invaziv usul endometriozning aniq darajasini aniqlashga yordam beradi.

**Biomarkerlar:** CA-125 kabi o‘sma markerlar yordamida laborator tekshiruvlar o‘tkaziladi, ammo ularning diagnostik sezgirligi pastligi sababli faqat qo‘sishimcha usul sifatida qo‘llaniladi. Endometriozni davolash simptomlarga, kasallik bosqichiga va bemorning reproduktiv rejasiga bog‘liq ravishda individual yondashuvni talab etadi. {5}

**Gormonal preparatlar:** Kombinatsiyalangan peroral kontratseptivlar (KPK), gonadotropin relizing-gormon agonistlari (GnRH agonistlari), progesteron va levonorgestrel-spirallar yordamida gormonlarni bostirish amalga oshiriladi (4).

Nonsteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar- (NYAQP) og‘riqni kamaytirish uchun qo‘llaniladi (4).

### **Jarrohlik davolash:**

**Minimal invaziv laparoskopik jarrohlik:** Endometriotik o‘choqlarni yo‘q qilish va bitishmalarni olib tashlash uchun ishlataladi (4).

**Radikal jarrohlik:** Og‘ir holatlarda bachardon va tuxumdonlarni olib tashlash talab qilinishi mumkin (5). Qo‘sishimcha davolash usullari bu kasallikni asoratsiz davolashda samarali usullardan bo‘lib xizmat qiladi.

**Masalan; Fizioterapiya va reabilitatsiya-** Elektroforez, magnitoterapiya va akupunktura yordamida simptomlarni yengillashtirishga va muolajalar samara berishida muhim ahamiyatga ega{6}.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, **GnRH agonistlari** va **levonorgestrel-spirallar** yordamida o‘tkazilgan terapiya bemorlarning 70-80%ida simptomlarning kamayishiga olib keladi.

Laparoskopik jarrohlikdan keyin esa bepushtlik bilan og‘rigan ayollarning 50-60%ida homiladorlik qayd etilgan.{4}

Shuningdek, 2019-yilda o‘tkazilgan metaanalitik tadqiqotda kombinatsiyalangan terapiyaning uzoq muddatli natijalari yanada samarali ekanligi aniqlangan .

**Xulosa:** Endometrioz kasalligini zamonaviy diagnostika usullari yordamida erta aniqlash va individual yondashuv asosida samarali davolash usullarini tanlash bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Barcha bemorlar uchun har tomonlama yondashuv talab etiladi, bu esa dorivor, jarrohlik va qo‘sishma terapiya usullarini o‘z ichiga olishi kerak (5).

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Giudice LC, Kao LC. *Endometriosis: Role of Stem Cells and Immune System Dysfunction*. The / Lancet, 2021.
2. Vercellini P, et al. *Endometriosis and Infertility: A Pathophysiologic Assessment*. Best Practice & Research Clinical Obstetrics & Gynaecology, 2020.
3. Chapron C, et al. *Deep Endometriosis: Management and Impact on Fertility*. Human Reproduction Update, 2019.
4. Meuleman C, et al. *The Prevalence of Endometriosis in Women with Infertility*. Human Reproduction, 2018.
5. Zondervan KT, et al. *Endometriosis*. Nature Reviews Disease Primers, 2019. Bazot M, et al. *Ultrasound and MRI for Diagnosing Endometriosis: An Overview*. Best
6. Practice & Research Clinical Obstetrics & Gynaecology, 2020. Johnson NP, et al. *Laparoscopic Surgery for Endometriosis: A Meta-analysis*. The Cochrane Database of Systematic Reviews, 2021.